

MIQDOR VA DARAJA FORMASIDA KELUVCHI ILOVALI ELEMENTLAR

*M.B.Begmatov¹**Annotatsiya:*

Ilovali konstruksiyada ilovali element o'ziga xos strukturaga egadir. Ilovali elementning bunday strukturasi, gaplarning uyushiq bo'laklaridan iborat. Miqdor va daraja formasida kelgan bu ilovali elementning asosiy vazifasi, asosiy ifodada ish harakatning qay darajada sodir bo'lishini ko'rsatib, uning biror bo'lagini aniqlab to'ldirib keladi.

Kalit so'zlar: ilovali element, miqdor va daraja formasi, element, komponent.

doi: <https://doi.org/10.2024/brgzhdi4>

Ilovali konstruksiya masalasi hozirgi zamon tilshunoslik fanida eng muhim masalalardan biri bo'lib hisoblanib, ko'plab tilshunos olimlarni o'ziga jalb etmoqda. Ilovali konstruksiyalar tilshunoslik fanida, ya'ni qisman nemis tilshunoslik fanida ko'p sohalarida tekshirilmoqda. Ilovali konstruksiyalar masalasi stilistik tomondan o'rganilmoqda. Lekin bu masalaning hamma tomonlari ham bir xil o'rganilgan deyish mumkin emas, chunki sintaktik tomondan qarasak, uning ko'p strukturaviy tomonlari ham yoritilmagan.

Ilovali konstruksiyada ilovali element o'ziga xos strukturaga egadir. Ilovali elementning bunday strukturasi, gaplarning uyushiq bo'laklaridan iborat, ya'ni analiz qilayotgan ilovali konstruksiyada ilovali element bir xil gap bo'lagi shaklida ifodalangan, ilovali element ma'no tomonidan har xil jihatdan bir xil gap bo'lagidan iborat, ya'ni miqdor va daraja holi formasida ifodalangan [2; 86-b.]. Ular yagona ilovali element strukturasi shaklida ifodalanishidan qat'iy nazar asosiy ifodaning so'nggi komponentini aniqlab, izohlab, to'ldirib kelgan.

Ilovali elementlar asosiy ifodadagi ish-harakatning sodir bo'ladigan joyini, paytini va shuningdek miqdor va darajasini ko'rsatib keladi.

In der ersten geöffneten Gaststätte der acht Kilometer entfernten Stadt bleibt er hängen und trinkt Bier. Ruhig und langsam Glas auf Glas.

Miqdor va daraja formasida kelgan bu ilovali elementning asosiy vazifasi, asosiy ifodada ish harakatning qay darajada sodir bo'lishini ko'rsatib, uning biror bo'lagini aniqlab to'ldirib keladi [1; 56-b.]. Shu narsani qayd qilishga to'g'ri keladikim, ilovali elementlar, asosiy ifodaning butunlay mazmunini aniqlash to'ldirish uchun xizmat qiladi yoki bo'lmasa, uning biron-bir bo'lagini izohlab keladi. Bu konstruksiyada ilovali element asosiy qismning oxirgi bo'lagini ya'ni, "und trinkt Bier" komponentini aniqlab kelib, bu protsesda uning pivoni shoshmasdan ichganligi, stakanlarning asta - sekin birin - ketin bo'shatganligini tasvirlab berilgan eng muhim, bu ilovali konstruksiyada asosiy ifoda bilan ilovali element o'rtasida sintaktik aloqaning o'rnatilishidir. Bu aloqa "trinken" so'zi orqali amalga oshadi. Bunday so'zlar, kontakt so'zlari yoki biriktiruvchi vosita ham deb ataladi.

Bunday hodisalarning keyingi misollarimizda ham ko'rish mumkin.

Ich habe gedacht, wir könnten die Couch schwarz und die Sessel rot überziehen lasten. Oder umgekehrt. (W. Steinberger, Wasser aus trockenen Brunnen, S. 347).

Bu misolimizda ilovali konstruksiyada asosiy ifoda bilan ilovali element bir xil strukturaviy hajmga ega emas. Bu fikr asosiy ifoda bilan ilovali elementlar, hamma vaqtda bir xil strukturaga ega bo'lmasligi mumkin degan g'oyani tasdiqlab keldi. Albatta bunday holni

¹ *M.B.Begmatov, SamDCHTI professori*

faqatgina shu misol asosida emas, balki boshqa misollar asosida ham ko'rish mumkin. Bu ilovali konstruksiyaning oldingi ilovali konstruksiyadan farqi shuki, bu yerda ilovali element asosiy ifoda bilan maxsus biriktiruvchi vosita orqali bog'langan. Bunday funktsiyani "oder" bajarib keladi. Shuni qiziqki ilovali element asosiy ifoda tarkibidagi "schwarz" va "rot" sifatlarining o'rniga kelishligi tasvirlanadi. Shu asosiy ifodaning mazmuni aniqlanadi, to'ldiriladi.

Ba'zi hollarda ilovali elementlar asosiy ifodada unda anglashgan ish – harakatni qay holda sodir bo'lishini ko'rsatib kelishi mumkin.

Sie kam mit Fröschen und Pilzen Hum da stand vor ihr ein unbekannter Mensch. Bartlos und Hager. (Marianne Bruns. Die Lichtung, S. 105).

Er schrieb rauchte die Zigarre ging aus, er schrieb sachlich nüchtern. Eifrig und hoffnungslos. (L. Feuchtwanger, Erfolg. S. 68)

Ilovali konstruksiyada ilovali element o'ziga xos strukturaga egadir. Ilovali elementning bunday strukturasi, gaplarning uyushiq bo'laklaridan iborat, ya'ni analiz qilayotgan ilovali konstruksiyada ilovali element bir xil gap bo'lagi shaklida ifodalangan, ilovali element ma'no tomonidan har xil jihatdan bir xil gap bo'lagidan iborat, ya'ni miqdor va daraja holi formasida ifodalangan [3; 14-b.]. Ular yagona ilovali element strukturasi shaklida ifodalanishidan qat'iy nazar asosiy ifodaning so'nggi komponentini aniqlab, izohlab, to'ldirib kelgan.

Ilovali konstruksiyaning komponentlar orasidagi sintaktik aloqalar, biriktiruvchi vosita sifatida keluvchi "schreiben" kontaktli so'z orqali amalga oshadi. Ilovali elementlar hol formasida kelganida, sintaktik aloqa, asosiy ifoda sostavida keluvchi bosh bo'laklarning birligi asosida amalga oshiriladi.

Yuqoridagi konstruksiyada sostavidan "er schrieb" modelini olsak, yuqorida keltirilgan fikrimizning to'g'riligiga ishonch hosil qilamiz. Haqiqatdan ham ish model birligi asosiy ifoda bilan ilovali element o'rtasidagi aloqani o'rnatishda yordam beradi.

Yuqoridagi ilovali konstruksiyadan, quyidagi ilovali konstruksiya shu bilan farq qiladiki : birinchidan ilovali element komponentlari bir-birlaridan maxsus biriktiruvchi vosita orqali bog'langan; bu funktsiyani "und" bajarib keladi; ikkinchidan ilovali element asosiy ifodadagi "ging" holiga tegishlidir.

Masalan:

Sein kälter frisches Gesicht Sah jung aus im Schnee. Nicht mehr kränklich und älthch. (A. Seghers, Das Vertrauen, S. 88)

Demak ilovali elementning mazmuni, asosiy ifoda komponentiga qarama – qarshi qo'yilgan. Demak, bu yerda ham asosiy ifoda (komponentiga) bilan ilovali element orasidagi sintaktik aloqalar, bosh bo'laklarning birinchi asosida amalga oshadi. "Aussehen" so'zi ham murakkab sintaktik butunlikning komponentlarning bo'lishi asosiy ifoda bilan ilovali elementlar o'rtasidagi sintaktik aloqalarni o'rganishda muhim rol o'naydi. Ya'ni ilovali element ana shu "aussehen" so'zining talabi bilan yuzaga keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

[1]. Адмони В.Г. Синтаксис современного немецкого языка. -Л., "Наука" 1973. -366 с.

[2]. Begmatov M. To'ldiruvchi bilan ifodalangan ilovali elementlarning funktsiyalari. Filologiya fanlari nomzodi dissertatsiyasi. -Samarqand, 1999. -145 b.

[3]. Begmatov, Q. M. (2024, April). Nemis tili darslarida talabalarning asosiy kompetensiyalarini shakllantirish. In *Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit* (pp. 172-174).

[4]. Begmatov, Q. M. (2024, April). Nemis tili ikkinchi chet tili o'qituvchisining kasbiy kompetensiyasini shakllantirish. In *Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit* (pp. 316-320).